

# HARBIY XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING TALQINI, MOHIYATI VA XORIJ MAMLAKATLARNING HARBIY XAVFSIZLIGINI TAMINLASHIDA XALQARO XAMKORLIK ROLINING ASOSLARI

*Shamuratov Ushqun Zaripboevich*

*mayor, O'R QK Akademiyasi 1-bosqich tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola asosan, harbiy xavfsizlikni dolzarb muammolarini ilmiy jihatdan o‘rganish maqsadida, dastlab uning nazariy asoslariga e’tibor qaratish uchun “harbiy xavfsizlik” tushunchasining mazmun va mohiyatini, shuningdek xorijiy davlatlarning harbiy xavfsizligini ta’minlashdagi xalqaro hamkorlikning roli o‘rganib chiqildi. Maqlada ushbu mavzu bo‘yicha izlanishlar olib borgan olimlarning fikrlari va qarashlari va davlat tomonidan qabul qilingan qonunlarga asoslangan holda “harbiy xavfsizlik” tushunchasi, hamda harbiy xavfsizlikni ta’minlashning o‘ziga xos jihatlari yoritib chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, jamiyat, davlat, milliy manfaatlar, harbiy xavfsizlik, milliy xavfsizlik.

**Abstract:** this article was mainly studied in order to scientifically study the pressing problems of Military Security, initially focusing on its theoretical foundations, the content and essence of the concept of “military security”, as well as the role of international cooperation in ensuring the military security of foreign countries. The article highlighted the opinions and views of scientists who have researched on this topic and the concept of “military security” based on laws adopted by the state, as well as specific aspects of ensuring military security.

**Keywords:** person, society, state, national interests, military security, national security.

Bugungi kundagi globallashuv jarayonlarining keskin qonuniylatlari dunyo mamlakatlari orasida iqtisodiy tengsizlikni yanada o‘zgartirib, ba’zi holatlarda kolonializmnинг yangi shakli sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ayrim buyuk davlatlarni o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun avvalo, iqtisodiy, diplomatik, axborot kabi sohalar asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq, dunyoning qator davlatlari tomonidan olib borilayotgan milliy xavfsizlikni ta’minlashga bo‘lgan yondoshuvlar tahlili – qurolli kuchlar davlatning eskirib qolgan atributiga aylandi degan fikrlarni inkor qilishda davom etib o‘zlarining hayotiy muhim manfaatlariga o‘zlarining harbiy kuchlari orqali amalga erishmoqdalar. Shu tariqa davlatlar harbiy doktrinalarining maqsad va vazifalari harbiy kuchlarni saqlab turish, kuchaytirish va kollektiv xavfsizlik tizimida ishtirok etish orqali harbiy xavf va tahdidlarni oldini olishga qaratilmoqda. Bu jarayonlarni ilmiy jihatdan o‘rganish esa avvalam bor

“xavfsizlik” tushunchasining tadqiq qilishga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, “Xavfsizlik” tushunchasi uning xavf va tahdid kabi kategoriyalari, ob’ekti va sub’ekti, sohalari, hamda xavfsizlik tizimining ijtimoiy-falsafiy va siyosiy-huquqiy mazmuni dunyoda kechayotgan voqeа va hodisalar ta’sirida bosqichma-bosqich (evolyutsiya) mazmunan o‘zgarib, rivojlanib kelmoqda. O’tgan asrning 60-70 yillarigacha ilmiy davralarda “xavfsizlik” tushunchasini dastlabki tadqiq qilishning An’anaviy yondashuvi mavjud edi. Bu fikr tarafdorlari “xavfsizlik” tushunchasini ma’lum bir davlatni boshqa bir mamlakat tomonidan qilingan tashqi harbiy tahdiddan himoyalanish deb tushunganlar. Bu ma’noda “xavfsizlik”ning dastlabki tushunchasiga, davlat miqyosida, “milliy xavfsizlik” sifatida qaralgan. An’anaviy yondashuvga binoan milliy hudud miqyosida xavfsizlikning bosh sub’ekti davlat hisoblangan. Milliy manfaatlar esa ob’ekt hisoblangan [1].

Xususan, tadqiqotchilar K.Buz, E.Xerring va B.Byuzanlarning qarashlari milliy xavfsizlikning harbiy jihatdan ustuvorligi to‘g‘risidagi g‘oya - “strategik tadqiqotlar” va “xavfsizlikning An’anaviy tadqiqotlari” konsepsiyalarida yoritilgan bo‘lib, ular “xalqaro munosabatlarga kuchlar instrumentining ta’siri” va “xalqaro munosabatlarning harbiy mezonini tushunish va anglash” sifatida izohlangan. Demak, bu guruh olimlarining fikricha, davlatning harbiy kuch-qudrati uning xalqaro maydondagi manfaatlarini munosib himoya qilishga mo‘ljallangan asosiy vosita hisoblangan.

Baholanki, o’tgan asrning 80-90 yillarida ikki qutbli dunyoning barham topishi va butun dunyoda globallashuv natijasida “xavfsizlik” tushunchasining serqirraligi va kompleks xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Jumladan, ingliz olimi Richard Ullman bu haqda quyidagi fikrni bildirgan: - “Milliy xavfsizlikni faqat harbiy terminlar orqali belgilash, voqelikni mutloq xato tasavvur qilishdir”. Olimning fikricha, “bunday tasavvur davlatni faqatgina harbiy tahdidlarga diqqatini qaratib, boshqa ehtimolli, ya’ni bundan ham vayronkorroq xavflarni nazardan chetda qolishiga olib keladi”.

Xavfsizlikning iqtisodiy, ekologik, axborot va boshqa sohalar hisobiga kengayishi, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, nohukumat va transmilliy koorporatsiyalar, milliy ozodlik harakatlari, shu bilan birga, transmilliy tahdidlar vujudga kelgan sharoitda davlatning xavfsizlik sohasidagi an’anaviy funksiyalarining zaiflashish jarayoni kuzatildi [2].

Binobarin, milliy manfaat va xavfsizlikni ta’minalashda urg‘u davlatning harbiy qudratidan noharbiy, ya’ni siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, ijtimoiy, moliyaviy, axborot va ekologik vositalarga ko‘chib o’tdi. Shunday qilib, milliy xavfsizlikni ta’minalashda harbiy kuchning ustuvorlik omili ikkilamchi o‘ringa tushib, uning o‘rnini insoniy, iqtisodiy-ekologik omillar egallay boshladi. Shundan boshlab “milliy xavfsizlik” tushunchasini An’anaviy talqin qilish o‘zining o‘tkinchi ahamiyatini yo‘qotib, harbiy tarkibi, xavfsizlik sohalarining biriga aylandi.

Shuningdek, bugungi kunda ba'zi davlatlarning o'z xavfsizligini ta'minlashga qurbi yetmasligi natijasida hududiy xavfsizlikning ahamiyati yanada o'sdi. E'tiborli jihat shuki, xavfsizlikni mintaqalashtirish negizida xalqaro huquqiy me'yorlar, davlatlararo siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va harbiy sohalardagi hamkorlik va integratsiya orqali o'zaro xavfsizlikka erishish institutlarini yaratish g'oyalari paydo bo'ldi. Bu g'oyalalar XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan "umumiyl xavfsizlik" (common security), "xavfsizlik kompleksi" (security complex), "hamjamiyat xavfsizligi" (security community) va boshqa konsepsiyalarda o'z aksini topgan.

Shunday qilib, xalqaro munosabatlar tizimida xavfsizlik konsepsiyasiga An'anaviy va keng ma'noli yondashuvlar "harbiy xavfsizlik" tushunchasini tadqiq etishning metodologik asoslarini shakllantirish jarayoniga bevosita ta'sir etdi.

Shu kunga qadar ushbu ilmiy kategoriyaga oid ko'p ta'riflar ishlab chiqilgan. Jumladan, M.I.Abduraxmanov, V.A.Borishpoles, V.L.Manilova va V.S.Pirumovlar ishtirokidagi ilmiy ishda "harbiy xavfsizlik" quyidagicha tavsiflanadi: - "shaxs, jamiyat va davlatning harbiy tahdidlardan himoyalanganligi; harbiy kuchni qo'llashni qo'zg'atuvchi sabablar mavjud emasligi natijasida urushning bo'lish ehtimoli minimumga tenglashtirganlik holati...". Muallif asosan harbiy kuchlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyojni bevosita urushni qo'zg'atuvchi kuchlarning niyatlarini ifoda etuvchi sabablarga e'tibor qaratgan.

M.F.Gasko "davlat, jamiyat va shaxsning harbiy sohadagi hayotiy muhim manfaatlarini tashqi, ichki va transchegaraviy tahdidlardan yetarlicha himoyalanganlik holati hisoblangan harbiy xavfsizlikni milliy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida tavsiflash mumkin" – deb hisoblaydi. M.Gasko, transchegaraviy muammolarni tashqi yoki ichki tahdidlardan alohida ajratib ko'rsatib, harbiy xavfsizlikni ta'minlashda bu omilni alohida o'rganishga chorlamoqda. Shu bilan birgalikda, u himoyalanganlik darajasining absolyutligiga emas, balki nisbiy ekanligi haqidagi fikrga e'tiborni tortadi.

S.A.Fomin boshqa olimlardan farqli ravishda, sub'ekt - davlatning yetakchilik rolini ta'kidlab, o'z ta'rifida "davlatning hayotiy manfaatlarini harbiy xavf va tahdidlardan himoyalanganlik holati" sifatida e'tirof etgan. Darhaqiqat, muallifning aynan davlat, boshqa sohalar bilan birgalikda harbiy sohada ham xavfsizlik siyosatini olib borish uchun barcha vosita va kuchga ega bo'ladi, degan fikri davlat harbiy xavfsizligini ta'minlashda sub'ektlar vakolatini to'g'ri ta'kidlanganini ko'rish mumkin. Biroq, Fomin o'z ta'rifida boshqa ob'ektlar – shaxs va jamiatning hayotiy muhim manfaatlariga ko'p e'tibor qaratmagan.

S.A.Tyushkevich harbiy xavfsizlik tushunchasiga birmuncha kengroq qarab "harbiy xavfsizlik – bu davlatning mintaqaviy va xalqaro munosabatlarda shunday holatiki, unda harbiy qudrat (harbiy kuch)ning muayyan darajasi, birinchidan, yirik davlatlar bilan ochiq sheriklik, normal aloqalar o'rnatib, ularni ehtimoliy agressorlar safidan istisno qilish borasida ish olib borish; ikkinchidan, har qanday agressiyaning

tashabbuskoriga misli kutilmagan talofot yetkazishiga ishonch qilish imkonini beradi, deb ta'kidlagan. Mutaxassisning birinchi fikri kooperativ xavfsizlik g'oyalarini ilgari surishga mos keladi va nafaqat harbiy xavfsizlik, balki milliy xavfsizlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Olimlar A.A.Proxojev, G.A.Kabakovich va S.M.Filkovlarning yozishicha "harbiy xavfsizlik - bu mudofaa sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini himoyalanganlik holatidir".

O'zbekistonlik olimlardan P.A.Makkambayev harbiy xavfsizlikni "siyosiy, iqtisodiy, harbiy, chegaraoldi, sotsial-huquqiy, informatsion, tashkiliy va boshqa sohalarda chora tadbirlar kompleksini amalga oshirish orqali harbiy sohada milliy manfaatlarni himoyalash va qarshi turishni ta'minlovchi umummilliy xavfsizlik tizimidagi muhim element". sifatida ta'riflaydi. Muallif o'z ta'rifida harbiy xavfsilikni ta'minlashni harbiy vositalari bilan birga bugungi kun uchun xos bo'lgan noharbiy vositalarini ham ko'rsatib o'tadi. Bu ta'rifning yana bir ijobjiy tomoni shundaki, qayd etilgan chora tadbirlar kompleksi davlat tomonidan ichki va tashqi harbiy tahdidlarni tiyib turish va bartaraf etishga xizmat qiladi [3].

A.R.Raxmonov muammoga kompleks yondashib, uning ijtimoiy jihatiga xususan, "harbiy xavfsizlik – bu ijtimoiy taraqqiyotning holati va ob'ektiv tendensiyasidir, shuningdek, qaysidir bir davlatga harbiy yo'l bilan yoki qurolli zo'ravonlik vositasida zarar yetkazish imkoniyatini istisno etuvchi va bartaraf qiluvchi sharoit va omillar majmuidir".

R.Samarovning fikricha "harbiy xavfsizlik – shaxs, jamiyat, davlat hayotiy muhim manfaatlarining ham tashqi, ham ichki harbiy xavflardan himoyalanganlik darajasini anglatuvchi milliy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ta'riflanadi". Muallif masalaga tizimli yondoshgan holda harbiy xavfsizlikni ta'minlashda jamiyatni boshqa sohalarini ham o'rni beqiyos ekanligi va ularni element sifatida bevosita bog'liq ekanligini e'tirof etmoqda.

Ta'kidlash joizki, ayrim harbiy adabiyotlarda "harbiy xavfsizlik" bilan birgalikda "mudofaa xavfsizligi" tushunchasi ham ko'p uchraydi. Bu borada ko'plab yosh tadqiqodchilarni "mudofaa xavfsizligi"ning "harbiy xavfsizlik" bilan mohiyati birmi? - degan savol qiziqtirib kelgan.

Bizning fikrimizcha, "harbiy xavfsizlik" – keng ma'nodagi fundamental va nazariy tushuncha. U o'z ichiga mamlakatning ehtimoliy urushga tayyorgarlik va uning oldini olish yo'llarini ham aggressiv (hujumkor), ham mudofaa strategiyalarini qamrab oladi. Demak, mamlakatning turli ko'lamdagи harbiy tahdidlardan mudofaa qilinishini nazarda tutuvchi "mudofaa xavfsizligi" tushunchasini tadqiqotchilar qo'llar ekanlar, davlat harbiy siyosatining tinchlikparvar va aynan mudofaa xarakteriga ko'proq e'tibor qaratadilar.

Demak, yuqorida “harbiy xavfsizlik” tushunchasiga berilgan ta’riflarning tahlili ularni ikki guruhga bo‘lishni taqazo etadi [4].

Birinchi guruhga M.I.Abdurahmanov, V.A.Borishpoles, V.L.Malinova va V.S.Pirumov, M.F.Gasko, S.A.Fomin, A.A.Priboj, G.A.Kabakovich va S.M.Filkovlarning ta’riflarini kiritish mumkin. Ularda etatik yondashuv qo‘llanilgan, ya’ni harbiy xavfsizlikni izohlashda aksent sub’ektlarning harbiy sohadagi hayotiy muhim manfaatlari qaratilgan. Shu bilan birgalikda, ushbu guruhi vakillarining fikri O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasidagi harbiy xavfsizlikka berilgan ta’rifga ham mos keladi, ya’ni harbiy xavfsizlik – milliy manfaatlarning harbiy sohada davlat xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlardan himoyalanganlik holati deb ta’kidlanmoqda.

Ikkinci guruhni, S.A.Tyushkevich va P.A.Makkambayevlarning ta’riflari tashkil etadi. Olimlar funksional yondashuvni qo‘llab, harbiy xavfsizlikni ta’minlashda siyosiy-tashkiliy choralar zarurligini qayd etishadi. Bunda, agar S.A.Tyushkevich zaruriy harbiy qudratni yaratishga e’tibor qaratgan bo‘lsa, P.A.Makkambayev va R.Samarovlar ta’rifida esa harbiy va noharbiy sohalarga ham keng e’tibor qaratilishi ta’kidlangan.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ta’riflar mazmuni quyidagi xulosalarga keraklicha asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin:

**Birinchidan**, mualliflarning “harbiy xavfsizlik” tushunchasini turli xil sharhlashlariga qaramasdan, davlatning harbiy xavfsizligini ta’minlashda “shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari”, ya’ni “shaxsning huquqi va uning erkinliklari”, “jamiyatning sog‘lom rivojlanishi”, “davlatning suvereniteti va hududiy yaxlitligi, mamlakatdagi konstitutsion tuzum” kabi uning asosiy ob’ektlari hisoblanadi.

**Ikkinchidan**, “harbiy xavfsizlik” tushunchasining asosiy belgisi sifatida “yetarlicha-kafolatli himoyalanganlik sharoiti va holati”, “tashqi va ichki harbiy tahdidlar”, “davlatning harbiy tashkiloti”, “harbiy qudrat (harbiy kuch)” ko‘rsatib o‘tilgan.

**Uchinchidan**, harbiy xavfsizlikning umumiyligi funksional xususiyatlari quyidagilar: “shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari harbiy-kuch ishlash metodlari orqali himoya qilish”, “ijtimoiy institutlarning ichki va tashqi tahdidlar, hamda agressiya aktlardan himoyalananish choralarini amalga oshirishi”, “harbiy qudratning yaratilishi”, “qurolli konfliktlar va urushlarni oldini olish”.

**To‘rtinchidan**, harbiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi, hamda muhim komponenti hisoblanadi. Harbiy xavfsizlikni ta’minlash mohiyatan ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Demak, harbiy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari tinchlik va urush davrida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar, axborot va harbiy choralar komplekslari orqali harbiy sohada an’anaviy va noan’anaviy xarakterdagi ichki va tashqi tahdidlardan kafolatli himoyalanganlik holatidir.

Bugungi kunda xorij mamlakatlarning harbiy xavfsizligini ta'minlashda xalqaro hamkorlikning roli eng ahamiyatli ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelmoqda.

Xususan, harbiy xavfsizlikni mustahkamlashga intilish, jahon hamjamiyati davlatlarining harbiy siyosatining asosi bo'lib qolmoqda. Tegishli faoliyatni amalgalashuviga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ushbu masalada Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Ozarbayjon, Qozoqiston davlatlarining harbiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha harbiy siyosatining asosiy mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Harbiy xavfsizlik sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalgalashuviga oshirish; ichki siyosiy barqarorlikni saqlash; konstitutsiyaviy tuzumni, mamlakat hududining yaxlitligi va daxlsizligini himoya qilish; qo'shni va boshqa davlatlar bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash; mudofaa tizimini zarur darajada yaratish va ta'minlash; Qurolli Kuchlar, boshqa qo'shinlar, harbiy tuzilmalar va organlarni sifat jihatidan takomillashtirish va zarur hollarda ularning kelishilgan harakatlarga tayyorligini ta'minlash; turli sohalardagi muhim ob'ektlarni muhofaza qilish va boshqalar [5].

Rossiya Federatsiyasi harbiy xavfsizlikning siyosiy-diplomatik tarkibiy qismi quyidagilardan iborat:

Kollektiv (xalqaro) xavfsizlik tizimining yuqori darjasи; davlatning harbiy-siyosiy ittifoqlar tizimiga integratsiyalashuvi; dunyodagi harbiy-siyosiy kuchlarning maqbul muvozanati; Rossiya ishtirok etadigan xalqaro shartnomalar va bitimlarning kafolatlangan bajarilishi; qurollarni nazorat qilishning xalqaro rejimini va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik va ularni yetkazib berish vositalarini yanada takomillashtirish.

Harbiy xavfsizlik uch darajaga bo'linadi: Global, mintaqaviy va milliy.

Global miqyosda, Rossianing harbiy xavfsizligi ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslikni nazorat qilish, strategik hujum qurollarini qisqartirish va boshqalar bo'yicha chora-tadbirlar bilan ta'minlanadi.

Mintaqaviy darajada, Rossianing harbiy xavfsizligi Rossianing harbiy-strategik pozitsiyasini yaratish orqali ta'minlanadi. MDH va NATO miqyosidagi kollektiv xavfsizlik tizimi.

Milliy darajada, Rossianing harbiy xavfsizligi asosan mamlakatning zarur harbiy salohiyatini yaratish orqali ta'minlanadi.

Harbiy xavfsizlik ikki jihatga ega: Ichki va tashqi.

Harbiy xavfsizlikning ichki tomoni mamlakatning beqaror rivojlanishi sharoitida namoyon bo'ladi va birinchi navbatda mavjud konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish muammolari, markazning federatsiya sub'ektlari va federatsiya sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlari bilan bog'liq.

Tashqi tomoni harbiy xavfsizlik, xalqaro huquq sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlar holati bilan bog'liq bo'lib, davlatning alohida davlatlar yoki ularning ittifoqlarining turli sohalardagi mavjud qarama-qarshiliklarni hal qilish vositasi sifatida harbiy kuch ishlashiga urinishlariga qarshi turish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu zamonaviy Qurolli Kuchlar, kollektiv yoki universal xavfsizlik tizimlarini shakllantirish, turli harbiy-siyosiy ittifoqlarga a'zo bo'lish zarurligini nazarda tutadi.

Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasining harbiy xavfsizligini ta'minlashning maqsadi - har qanday davlat yoki davlatlar ittifoqining roli va ahamiyatini zaiflashtirish imkoniyatini istisno qiladigan mamlakatning shunday siyosiy, xalqaro va harbiy-siyosiy pozitsiyasini yaratish va qo'llab-quvvatlashdir [6].

Xitoy Xalq Respublikasining harbiy xavfsizligini ta'minlashda xalqaro hamkorlikning roli bo'yicha amalga oshirib kelayotgan ishlari bo'yicha g'oyalarini ishlab chiqqan.

Umumiyligi keng qamrovli, hamkorlik va barqaror xavfsizlikni ta'minlash g'oyasiga sodiq qoling. 2014-yilda Prezident Si Tsinpin umumiyligi keng qamrovli, hamkorlik va barqaror xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yangi g'oya tashabbusi bilan chiqdi, bu xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etilgan va qo'llab-quvvatlangan. Xavfsizlikka oid ushbu yangi qarashning mohiyati har bir davlat xavfsizligini hurmat qilish va himoya qilish, umumiyligi xavfsizlik kontseptsiyasini ilgari surishdan iborat; yaxlit yondashuv, ham An'anaviy, ham noananaviy sohalarda xavfsizlikni ta'minlash va xavfsizlikni boshqarishni muvofiqlashtirilgan tarzda oshirish; hamkorlik, siyosiy muloqot va tinch muzokaralar orqali xavfsizlikni ta'minlash majburiyati va barqaror xavfsizlikka intilish, nizolarni rivojlanish yo'li bilan hal qilish va ishonchszilik uchun asosni yo'q qilish. Ishonamizki, xavfsizlik faqat axloq, adolat va to'g'ri g'oyalar bilan mustahkamlangandagina mustahkam o'rnatiladi va barqaror bo'ladi.

Barcha mamlakatlarning suvereniteti va hududiy yaxlitligini hurmat qilishga sodiq bo'ling. Suveren tenglik va ichki ishlarga aralashmaslik xalqaro huquqning asosiy tamoyillari va zamonaviy xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi eng asosiy normalardir. Biz katta yoki kichik, kuchli yoki zaif, boy yoki kambag'al, barcha mamlakatlar xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zolari ekanligiga ishonamiz. Ularning ichki ishlari tashqi aralashuvga olib kelmasligi, suvereniteti va qadr-qimmatini hurmat qilish, ijtimoiy tizimlar va rivojlanish yo'llarini mustaqil tanlash huquqini ta'minlash zarur. Suveren mustaqillik va tenglikni qo'llab-quvvatlash, barcha mamlakatlar huquqlar, qoidalar va imkoniyatlar bo'yicha tenglikdan foydalanishlari uchun harakat qilish kerak.

An'anaviy va noan'anaviy sohalarda xavfsizlikni saqlashga sodiq bo'ling. Bugungi dunyoda xavfsizlikning intensivligi ham, kengayishi ham kengayib bormoqda. Xavfsizlik ko'proq o'zaro bog'liq, transmilliy va xilma-xildir. An'anaviy va

noan'anaviy xavfsizlik tahlidlari o'zaro bog'liq bo'lib qoldi. Biz barcha mamlakatlarni global boshqaruvda keng ko'lalni maslahatlashuvlar, qo'shma hissa va umumiy manfaatlar tamoyillarini amalda qo'llashga, hamda mintaqaviy nizolar va terrorizm, iqlim o'zgarishi, kiberxavfsizlik va bioxavfsizlik kabi global muammolarni hal qilishda birgalikda ishslashga undaymiz. Barqaror yechimlarni topish, global xavfsizlik boshqaruvini rag'batlantirish va xavfsizlik muammolarining oldini olish va hal qilish uchun bir nechta kanallarni o'rghanish, yaxlit yechim ishlab chiqish va tegishli qoidalarni takomillashtirish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni amalga oshirish kerak.

Ushbu oltita majburiyatlar bir-biri bilan bog'liq va bir-birini mustahkamlaydi va dialektik birlilikning organik yaxlitidir. Ular orasida umumiy, keng qamrovli, hamkorlik va barqaror xavfsizlikni ko'rish kontseptual yo'l-yo'riq beradi;

barcha mamlakatlarning suvereniteti va hududiy yaxlitligini hurmat qilish asosiy shartdir;

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining maqsad va tamoyillariga rioya qilish asosiy mezon hisoblanadi;

barcha mamlakatlarning qonuniy xavfsizlik tashvishlarini jiddiy qabul qilish muhim tamoyil, mamlakatlar o'rtasidagi kelishmovchilik va kelishmovchiliklarni muloqot va maslahatlashuvlar orqali tinch yo'l bilan hal qilish - bu majburiy tanlovdir;

An'anaviy va noan'anaviy sohalarda xavfsizlikni ta'minlash o'ziga xos talabdir [7].

Har bir davlat o'z xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan boshqa usullar bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatalishdan tiyilishi shart. Bunday tahdid yoki kuch ishlatalish xalqaro huquq va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomini buzish hisoblanadi; ular hech qachon xalqaro muammolarni hal qilish vositasi sifatida foydalanilmasligi kerak.

Amerika Qo'shma Shtatlari faqatgina birinchi jahon urushidan so'ng, tinchlik, xavfsizlik va xalqaro hamkorlikni ta'minlash kabi aniq bir maqsadga yo'naltirilgan ko'p maqsadli hukumatlararo tashkilotni yaratish zaruriyatini tushunib yetdi. Shu tarzda, 1919-yilda Millatlar Ligasi tashkil etildi. Bu harbiy nizolarni oldini olish va umumiy tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha vakolatlarga ega ilk hukumatlararo tashkilot bo'ldi. 1946 yilda uning negizida Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) tuzilishi bilan Millatlar Ligasi formal ravishda o'z faoliyatini to'xtatdi.

AQSH prezidenti V.Vilson tashabbusiga ko'ra, Parij konferensiyasida Millatlar ligasi tashkil etilib, uning Nizomi Versal tinchlik bitimining tarkibiy qismiga aylandi. Bu xalqaro tashkilot, Nizomga asosan, "xalqlar o'rtasida hamkorlik va ularning tinchligi va xavfsizligi kafolatlarini rivojlantirish" degan maqsadni o'z oldiga qo'ydi. Millatlar ligasining bosh organlari Liganing barcha a'zolari vakillaridan iborat Assambleya, Liga Kengashi va ular qoshidagi bosh kotib rahbarligi ostidagi doimiy Kotibiyat sanalardi.

Millatlar ligasi Kengashi 4 ta doimiy a'zo – Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya delegatlari va har yili almashib turadigan 4 ta vaqtinchalik a'zodan iborat bo'lgan. Millatlar ligasi Assambleyasi va Kengashining barcha qarorlari, tartib-taomil masalalarini istisno qilganda, bir ovozdan qabul qilinishi lozim bo'lgan.

Amerika Senati Versal bitimini, hamda tegishli ravishda uning Nizomini ratifikatsiya qilmadi, shu sababli AQSH Ligaga kirmadi. Keyinchalik davlatlar o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida BMT tuzdilar va BMT ning nizom va qoidalarini mustahkamlash maqsadida ko'plab jarayonlarni amalga oshirib kelmoqda [8].

Ushbu jarayonlar so'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlari davlat rahbarlari tomonidan BMTni, ayniqsa, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qarorlarni qabul qilish borasida isloh qilish zarurligini ta'kidlashmoqda.

Jumladan, AQSHning sobiq prezidenti Donald Tramp so'zlariga ko'ra, BMT qog'ozbozchilik va noto'g'ri boshqaruv tufayli o'z salohiyatini to'liq rivojlantirolmagan. "AQSH yirik donor sifatida kerakli natijalarni ko'rmayapti, shu bois biz tashkilot isloh qilinishi tarafborimiz", - deb bayonot bergen edi.

**Hulosa o'rnida shuni aytish joizki**, bugungi kunda AQSH davlati o'zining harbiy xavfsizligini ta'minlashda xalqaro tashkilotlar nizomlariga qat'iy rioya qilib kelmoqda.

Demak, davlatlar o'z harbiy xavfsizligini ta'minlashda xalqaro hamkorlik doirasida uzliksiz, tizimli ravishda o'z faoliyatlarini olib borishi o'z dolzarbligini saqlab qolgan.

Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasini talqini, mohiyati va xorij mamlakatlarning harbiy xavfsizligini taminlashda xalqaro xamkorlikda tutgan o'rnining va rolinining asoslari muntazam va tizimli o'rganib boorish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barry Buzan. Security: A New Framework for Analysis/ by Barry Buzan, Ole Waever, and Jaap de Wild. London, Lynne Rienner Publishers, 1998, p.1.
2. Abduraxmanov M.I., Borishpoles V.A., Manilov V.L. i Pirumov V.S. Основы национальной безопасности России//Под общей редакцией Манилова В.А. – М.: “Druza”, 1998. – B.31-32.
3. Gasko M.F. О сущности военной безопасности России и ее правовом регламентировании. // “Военная мысл”, 2009. - № 8. – B.18.
4. Fomin S.A. “Обеспечение национальной безопасности”. – Москва: “Flinta” MPSI. 2007. - B.85.
5. Tyushkevich S.A. Актуальные проблемы обеспечения военной безопасности России // Национальная безопасность и геополитика России. – 2004. - № 5-6. – B. 31.
6. Makkambayev P.A. Актуальные проблемы обеспечения военной безопасности Республики Узбекистан. – Т.: Ташкентский государственный юридический институт, 2010. B.67.
7. Rahmanov A.R. Международно-правовые аспекты всеобъемлющей безопасности//Государство и право. – 2003. - № 2. – B.72. 9. Samarov R. O'zbekiston Respublikasining harbiy xavfsizligi. // – Т., “MU” 2012. – B.16.
8. Samarov R. S. “Xavfsizlikning metodologik asoslari”. – Т.: 2010 yil. 2-20 b.